

BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL” LOYIHALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘NALISHLARI

Umarov Abduvaxob Tursunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
O‘zbekiston Milliy universiteti


<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062421>

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlantirishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish”¹ vazifasining belgilanganligi, keyingi yillarda ham mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda hududiy islohot dasturlariga ustuvorlik qaratilishidan dalolat beradi.

2000-2023-yillarda mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAHMning o‘rtacha yillik o‘sinh sur‘ati respublika bo‘yicha 4,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy (3,1 foiz), Qashqadaryo (3,3 foiz), Farg‘ona (3,6 foiz) viloyatlari ko‘rsatkichlari respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan past darajada bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori o‘rtacha yillik o‘sinh sur‘atiga ega bo‘lgan hududlar Toshkent shahri (7,6 foiz), Jizzax (5,4 foiz), Namangan (105,0) kabi viloyatlarni kiritish mumkin (1-rasm).

Tahlillarga ko‘ra, 2000-yilda Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg‘ona viloyatlari aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAHM hajmi bo‘yicha respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori darajadagi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib esa, faqatgina Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari respublikada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAHM hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga erishganligini ko‘rishimiz mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022-y. <https://lex.uz/docs/5841063>.



1-rasm. 2000-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati, foizda²

Barqaror rivojlantirish maqsadlarini moliyalashtirish va “Yashil” loyihalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida mintaqada ilk bor 340 mln AQSH dollari miqdorida “Yashil” va 600 mln yevro miqdorida BRM suveren xalqaro obligatsiyalar joylashtirildi³. Mamlakatda iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga ta'sirini ijobiy yoki salbiy ta'sirini uchta asosiy guruhga ajratgan holda o'rganish zarur⁴:

1. Iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish tadbirlari;
2. Iqlim o'zgarishiga moslashish tadbirlari;
3. Atrof-muhit masalalari bilan bog'liq boshqa ta'sirlar.

ESG omillari – bu ekologik (E), ijtimoiy (S) va boshqaruv (G) mezonlarini ifodalaydigan xalqaro tushuncha bo'lib, investorlar, kompaniyalar va moliyaviy institutlar tomonidan investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ushbu omillarga ham e'tibor qaratilishini ta'minlaydi. ESG omillariga ko'ra baholash investorlarga kompaniyaning nafaqat hozirgi daromad potensialini, balki kelajakdagi barqarorligini, risk darajasini, reputatsiyasini va ijtimoiy hamda ekologik mas'uliyatini aniqlashda yordam beradi. ESG omillarining investitsiya qarorlaridagi o'rni:

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

³ Byudjetnoma 2025-2027. 150 bet [Budjetnoma 2025_BmO2cnx.pdf \(mf.uz\)](#)

⁴ Byudjetnoma 2025-2027. 154 bet [Budjetnoma 2025_BmO2cnx.pdf \(mf.uz\)](#)

- hozirgi kunda ko'plab investorlar (shu jumladan yirik institutsional investorlar) ESG omillariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Sababi:

- ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompaniyalar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni saqlash, inqirozlarga bardoshli bo'lish, ijtimoiy hamjamiyat bilan ijobiy munosabatda bo'lish kabi afzalliklarga ega.

- ESG omillarni inobatga olmagan kompaniyalar iqtisodiy, ekologik yoki ijtimoiy mojarolarga duch kelib, katta jarimalar, imijga putur yetishi, xodimlar noroziligi yoki bozor ulushini yo'qotish riskiga ega. Bu investorlar nazarida uzoq muddatli daromad xavf ostida ekanligini anglatadi.

- ESG ga e'tibor berish orqali investorlar tabiiy ofatlar, qonunchilikda yuz beradigan kutilmagan o'zgarishlar, jamiyat talabining tez o'zgarishi kabi omillarga nisbatan portfelni chidamli qilishlari mumkin.

Tesla kompaniyasi qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish strategiyasi orqali 2022 yilga kelib 4,2 million tonna karbon chiqindilarini kamaytirishga erishdi. Har bir ESG komponenti bo'yicha asosiy indikatorlarni aniqlash muhim:

Ekologik indikatorlar:

-Karbon chiqindilari (Carbon footprint): Kompaniyaning ishlab chiqarish jarayonida chiqadigan karbon dioksid va boshqa issiqxona gazlari miqdori.

-Energiya samaradorligi: Sarflangan energiya miqdori va qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi.

-Tabiiy resurslar ishlatilishi: Suv va xom ashyo kabi resurslarning qancha miqdorda ishlatilishi.

Ijtimoiy indikatorlar:

-Xodimlarning mehnat sharoitlari: Ish soatlari, xavfsizlik standartlari va ishchilar huquqlari.

-Mahalliy jamoaga ta'siri: Mahsulotning iste'molchilar salomatligiga ta'siri yoki mahalliy iqtisodiyotga foydasi.

-Tenglik va xilma-xillik: Ayollar va kam ta'minlangan guruhlarining korporativ boshqaruvda ishtiroki. Apple kompaniyasi "Supplier Responsibility

Program” dasturi doirasida 2021 yilda 1,5 million ishchiga mehnat sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlarini yaratdi.

Boshqaruv indikatorlari:

-**Shaffoflik:** Kompaniyaning moliyaviy hisoboti va axborot yetkazish tizimi.

-**Korrupsiyaga qarshi choralar:** Korporativ boshqaruvdagi shaffof va adolatli qarorlar.

-**Manfaatlar to‘qnashuvi:** Rahbariyat va aktsiyadorlar manfaatlarini himoya qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini aniqlash mezonlari ulardagi investitsiya muhitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va barcha manbalar (davlat, xususiy) hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari uchun suveren “ESG” indikatorlarni ishlab chiqish orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022-y. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan
3. Byudjetnoma 2025-2027. 150 bet [Budjetnoma 2025 BmO2cnx.pdf \(mf.uz\)](#)